

XOJA AHMAD YASSAVIY- HIKMATNAVISLIK MAKTABINING ASOSCHISI SIFATIDA

X. Mirzakarimova

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19811217>

Annotatsiya: O'zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik maktabining shakllanishida Ahmad Yassaviyning harakati katta ahamiyatga ega. U Turkiston hikmatnavislik maktabining shakllanishidagi yetakchi shaxs hisoblanadi. Tasavvufiy adabiyotning yoyilishida hikmatlarining ta'siri kuchli bo'lgan.

Kalit so'z va iboralar: yassaviylik tariqati, tasavvufiy she'riyat, turkiy she'riyat, ulug' pir, ilohiy ilhom, hikmat aytish.

Annotatsiya

Большое значение в формировании школы мудрости в узбекской классической литературе имеет движение Ахмада Яссавий. Он является ведущей фигурой в формировании Туркестанской школы мудрости. Мистик, чья мудрость оказала сильное влияние на распространение.

Ключевые слова: секта Яссави, мистическая поэзия, турецкий язык, турецкая поэзия, божественное вдохновение, говорящая мудрость.

Annotattion

Ahmad Yassavi's movement is of great importance in the formation of the school of wisdom in Uzbek classical literature. He is the leading person in the formation of Turkestan wisdom school. His wisdom had a strong influence on the spread of Sufi literature.

Key words: Yassaviate sect, mystical poetry, Turkish poetry, Ulug' pir, divine inspiration, to speak wisdom.

Islom dini X-XII asrlarga kelib turkiy o'lkalarda keng tarqala boshladi. Islom madaniyatini turkiylar ommaviy ravishda qabul etishlari avvalgi din va madaniyatlarga bog'liqligidan farqli ravishda katta natijalarga olib kelishiga erishdilar. Bu hodisa turk va islom qarashlarining birlashishigina bo'lib qolmasdan, jahon tarixidagi eng muhim voqealar sirasiga aylandi. Bir necha dinlarga sig'inib yurgan turk millati yagona din atrofida birlashdi. Natijada moddiy va ma'naviy birlik yuzaga keldi. Turkiylar o'lkalarida ilm, fan, madaniyat rivojlandi, diniy-tasavvufiy fikr-qarashlar tez sur'atda yoyila boshladi.

Turkiylar islom dini va madaniyatini qabul qilgach, tasavvuf jarayoni Turkistonga ham kirib kela boshladi. Turkiylar Ahmad Yassaviy yashagan davrda tasavvuf g'oyalaridan butunlay behabar emas edilar. Ular ilohiy qo'shiqlar kuylashar, ohangdor she'rlar aytishar hamda so'fiy va darvehlarni hurmat qilishar edi. Olim N.H. Dadaxanovichning yozishicha, Yassaviy va shogirdlari targ'ib etgan so'fiylik an'anasi shomoniylar jazbaga o'rgangan turkiylarga yod tuyulmadi. XI asrning ilk yarmida barpo etilib, keyingi yarmida kuchaygan saljuqiylar davlati turk- musulmon davlati edi. Bu davlatda hech shubhasiz diniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy qarashlar ham muhofaza etilardi.¹

Xuroson, Onado'li, Volga bo'yi, Sibir va uning atrofida yashovchi turkiy xalqlar orasida, va albatta, Turkistonda musulmonlashuv jarayonining kuchayishi, tasavvuf adabiyotining

¹ Nodirxon Hasan. Yassaviyshunoslikka doir manbalar va "Devoni hikmat" Filologiya fanlari doktori. diss. –Toshkent.: 2017. 168-bet.

yoyilishi hamda shuhrat topishida Ahmad Yassaviyning diniy-irfoniy ruhdagi hikmatlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Yassaviyning diniy-tasavvufiy ruhdagi hikmatlari, yassaviylik tariqati asrlar davomida turkiy xalqlarni ta'sirlantirib kelgan. Buyuk pir Turkiston zaminida "Piri Turkiston", "Xojai Turkiston", "Avliyolar sarvari", "Hazrati sulton" va "Sulton-ul orifin" nomlari bilan shuhrat qozongan.

Turkiy xalqlar orasida Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ta'limoti, hikmatlari bilan mashhurdir. Yassaviy Turkiston va qo'shni xalqlar ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Murabbiy sifatida turkiy xalqlar orasida birinchi marta yassaviylik tariqatiga asos solgan. Adabiyotimizda tasavvuf she'riyatini boshlab bergan mutasavvif ijodkor sifatida gavdalanadi. Uning hikmatlari soddaligi, ravonligi va yod olinishi qulayligi bilan asrlar davomida turkiy xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy kamolotida o'rni muhimdir.

Turkiy tasavvuf she'riyat paydo bo'lishi, yuksalishi, rivoj topishi Turkiston piri, mashhur mutasavvuf Xoja Ahmad Yassaviy nomi bilan bo'g'liqdir. Ahmad Yassaviy XII asrning o'rtalarida hozirgi Turkiston viloyatining Yassi shahri yaqinidagi Sayram viloyatida tavallud topgan.² Nodirxon Hasanning fikricha Sayramda tug'ilgani haqiqatga yaqinroq, chunki Yassaviy va yassaviylik to'g'risidagi hozircha eng ishonarli va eng qadimgi manba "Javohir ul-abror" dir.³ Bir qator olimlar ham Yassaviyni Sayramda tavallud topganini tasdiqlaydilar. Turkiston eliga islom dini kirib kelgach, Sayram viloyati islom madaniyatining tarqalishi hamda dinining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Ahmad Yassaviyning kamol topishida tug'ilib o'sgan va ta'lim olgan yeri Sayram, Yassi, Buxoro shaharlaridagi ma'daniy- ma'naviy shart-sharoit, muhit ta'sir qilgan. Sababi bu shaharlar o'sha davrning muhim, ilm-fan markazi bo'lgan.

Xoja Ahmad Yassaviyning hayot yo'li, yassaviya tariqati irfoniy asarlari bir qancha yassaviyshunoslar tomonidan o'rganilgan. Uning ta'lim va tahsil maktablari, ustozlari, xalifalari, izdoshlari haqida tadqiqotlar olib borilgan. Bu izlanishlar Yassaviy dunyoqarashi hamda tariqatining o'ziga hos jihatlarini belgilashda muhim manbalar hisoblanadi. Qardosh turk olimlari tomonidan Turkiston pirining xalifalari, izdoshlari va yassaviylik tariqati davomchilari haqida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan: bu borada Fuod Ko'prulu, Kamol Erarslon, Najdat Tosun, Atham Jabaji o'g'li, Hayati Bije kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovor.

Turk olimi Muhammad Fuod Ko'prulu Yassaviyga quyidagicha baho beradi: "Yassaviyning turkiy xalqlar tarixidagi ahamiyati faqatgina besh-o'n parcha yoki bir necha jild tasavvufit she'rlar yozgan qadimiy bir shoir ekanligida emas, islomiyat turkiylar orasida tarqala boshlagan asrlarda, ular orasida ilk marotababir tasavvuf maslagini vujudga keltirib, ruhoniyatda yuz yillar mobaynidahukm surganligidadir. Yassaviydan oldin ham turkiylar orasida tasvvusni qabul qilganlar yo'q emasdi. Lekin ular islom markazlarida ajam madaniyatining ta'sirida yo jamlashib ketgan yoki yangi dinning umumiy lashuvi uchun turk ommasiga qo'shilib, unitilib ketgan edilar. Ulardan hech qaysisi o'zidan keyindavom etadigan biror kuchli narsa ta'sis etishga erisholmadilar. Holbuki, Yassaviy kuchli shaxsiyati bilan turkiylar orasida asrlarcha yashab kelgan buyuk va o'lmas bir tariqatga asos soldi".⁴

² F. Ko'prulu. Turk adabiyatinda ilk mutasavviflar. Anqara. 62-bet.

³ N. Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat" Filologiya fanlari doktori.diss. Toshkent-2017. 117-bet.

⁴ M.F. Ko'prulu. Turk adabiyotinda ilk mutasavviflar. Anqara. 114-bet.

Sharqda tasavvuf adabiyotining paydo bo'lishi bevosita so'fiylik ta'limoti bilan bog'liq, Tasavvuf ta'limoti islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'ldi. XI-XII asrlarda tasavvuf maktablari, silsilalari shakllandi. Misr, Bog'dod, Basra, Buvoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynadi. Misr, Xuroson, Movorounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topdi.⁵

Arab va fors mashoyixlari o'z suhbatlarida ash'ordan faol istifoda etadilar. Natijada XII asrga kelib ruboiy, g'azal, qit'a, qasida, masnaviy va boshqa janrlarni o'z iciga olgan ulkan tasavvuf adabiyoti shakllandi.⁶ Mana shunday ma'naviy iqlim Buxoroda ta'lim olgan Ahmad Yassaviyga juda katta ta'sir o'tkazdi. Bu paytga kelib Markaziy Osiyoda arab hukmronligi davrida turkiy adabiyot tanazzulga yuz tutayotgan edi. Shuningdek, bu davrgacha turkiy she'riyatning yozma taraqqiy etmaganining sababi ham bor edi, lekin turkiy qavmlar orasida so'z san'ati-she'riyatning og'zaki shakli mashhur edi. Mana shunday o'tish davrida ulug' shayx Ahmad Yassaviy turkiy she'riyatni saqlab qoldi.

Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston va uning atrofida, dasht-u biyobonda yashovchi qavmlarga din va tasavvuf ilmidan saboq berish maqsadida ular anglaydigan sodda, ravon, xalqona til bilan hikmatlar aytdi. O'z hikmatlarida nafsni tiyish, gunoh ish qilmaslik, tavba qilish, zikr aytish, Ollohdan qo'rqish, shariat amallariga rioya etish, rost so'zlash, vijdonga muvofiq yashash kabi amallarga insonlarni chaqiradi:

Quloqsizga oyat, hadis, hikmat harom,
Essiz, hikmat ich-qornimda bo'lsun tamom,
Nodonlarga tokay aytib, yig'lay mudom,
Dod aylasam, hech kim quloq solg'oni yo'q.⁷

Albatta, "Devoni hikmat" asari islom dini asoslaridan bahs etuvchi, shariatning ahkomi va ahli sunnatning qonun qoidalaridan saboq beruvchi, tariqatning odob qoidalari, tasavvufning sirlaridan ogoh etuvchi hamda ulardagi mezonlar yoritilgan qomusiy harakterdagi asardir. Undagi hikmatlar xalqchil va soddadir. Mana shunday fikrlardan asnosida yassaviyshunos Ibrohim Haqqul Yassaviy va uning ijodi haqida fikr bildirib: "Ahmad Yassaviyning turkiy adabiyotdagi tarixiy xizmati faqat hikmatnavislik an'anasini boshlab berganligi bilan chegaralanmaydi, albatta. "Devoni hikmat" da munojot, qasida, munozara janri talablariga muvofiq keladigan she'rlar bilan bir qatorda, bir "Merojnoma" ham o'rin olgan. Yassaviyning Hazrati Muhammad alayhissalom madh etilgan manzumalari yaratilish davridan boshlab to hanuzgacha o'quvchi ko'nglini ilhomlantirib kelgan va har qanday ijodkorga ta'sir ko'rsatishga qodir asarlardir", deya ulkan baho bergan edi.⁸

"Turk shoirlarining dohiylaridan" deya Yassaviyga ta'rif bergan Abdurahmon Sa'diy shunday yozadi: "Yassaviy turk qavmlarining haqiqiy ma'nosi bilan chin shoirlaridan (lirik) va xalq klassik shoirlaridandir. Ul g'oyat hassos, ilhom va xayoli tabiiy va yengil o'qishli bir shoirdir. Yassaviyning yuragi butun umriga ruhiy va ma'naviy ishq bilan lovullab yonaturg'on

⁵ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. 1996.

⁶ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. Toshkent.: Yozuvchi, 1996. 162-163 betlar.

⁷ Nodirxon Hasan. Ahmad Yassaviy . Devoni hikmat. Yangi topilgan namunalar. –Toshkent: Movorounnahr. 2004. 21-bet.

⁸ Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'afur G'ulon nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: -Toshkent. 2001 . 3-bet.

she'riy bir o'tdir. Ilohiy she'rda va muhabbat hissiyotida ul shu yo'ldagi boshqalarning yuraklarin o'rtag'uvchi, kuydurguvchi qo'rqinch bir hikmat yolqinidir ".⁹

Ayo oshiq, kecha-kunduz Haqni izla,
Zohir yurib, botiningda Arshni ko'zla.
Hikmat o'qib oyat-hadis so'zin so'zla,
Xazon yanglig' qizil yuzi so'lmas bo'lur.¹⁰

Ahmad Yassaviy fikr-qarashlari, "Devoni hikmat" asaridagi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, komil inson sifatida kamolga yetkazishdamuhim ta'lim –tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu jihatdan Xoja Ahmad Yassaviy ta'limoti kishilik jamiyatini adolatga, ezgulikka, ma'naviy pok va axloqan barkamol bo'lishga chaqirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yassaviy va izdoshlarining ijodi insoniyatga ma'nan pok, halol va ruhan sog'lom yashash ko'rsatmalarini bayon etadi. Bu masalalar bir necha yillardan beri ilm va ma'rifat ahlining diqqat markazida bo'lgan.

"Devoni hikmat" asari Xoja Ahmad Yassaviyning she'rlarini o'z ichiga olgan yirik majmuasidir. Majmuada islom dini asoslaridan baxs yuritiladi. Shariatning ahkomi ahli sunnatning aqidalaridan saboq beradi. Tasavvufning sirlarini ochadi. Tariqatning odobidan namunalar ko'rsatadi. Bu majmuada haqida Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek: "Ahmad Yassaviy birinchi bo'lib hikmatnavislik an'anasini boshlab bergan ijodkor. Yassaviy hikmatlarining bosh fazilati va hosiyati shundaki, ular, eng avvalo, she'rxonni Birlik Kuchiga ishontiradi va Ilohiy Birlik Shavqi bilan ko'ngilni poklaydi. Yassaviy hikmatlarini o'qigan kishi go'zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu muhibiga aylanadi, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da o'tkinchi dunyo davolaridan yiroqlashib, ma'no va mohiyatga yuz buradi. Chunki Ahmad Yassaviy bosh maqsad orifona maqsad bo'lgan. Shuning uchun u o'z ijod namunalariga hikmat nomini bergan"¹¹

Qayu tolib hikmatimni tutsa aziz,
Qoyda borsa, boshi-aziz , so'zi-laziz.
Yaxshi so'zni fahm aylamas har betamiz,
Ul sababdin dono izlab yurdim mano.¹²

Yassaviy hikmat nomini bergani tasavvufiy she'r an'anasiga asos solmaganida, umuman turkiy adabiyotda irfoniy mavzu, g'oya va timsollarning tarixi yoki taqdiri qanday kechishini aniq ko'rsatish ham mushkullashardi. Yassaviy turkiy tasavvuf adabiyotining tamalini yaratib, keyingi davr tasavvufiy she'riyatining inkishofiga kuchli ta'sir o'tkazgandir.¹³

Turkiston piring hikmatlari nihoyatda qiziqarli, zamonasining eng muhim voqea-hodisalari kuylangan. Hikmatlar xalqning urf-odatlariga mos tarzda ifoda etilgan. Islom dining arkonlari turon zamin ahlining milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda hikmatlar hamohanglikda badiiy ifoda etilgan. Bunday hamohanglik "Devoni hikmat"ning xalqchilligini ta'minlagan. "Adabiyot va san'atning xalqchilligi, birinchidan, xalq uchun ahamiyatli bo'lgan hayotiy masalalarni o'rtaga qo'yish, xalq hayotining eng muhim tomonlarini aks ettirish,

⁹ Abdurahmon Sa'diy. Ahmad Yassaviy. (Yassaviy kim edi?) –Toshkent: 1994. 11-bet

¹⁰ Nodirxon Hasan. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Yangi topilgan namunalar. Movorounnahr. Toshkent.: 2004. 25-bet.

¹¹ Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –Toshkent.: 2001. 14-bet.

¹² Nodirxon Hasan. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Yangi topilgan namunalar. Movorounnahr. Toshkent.: 2004. 11-bet.

¹³ Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –Toshkent.: 2001. 11-12 betlar.

mehnatkashlarning porloq orzu-umidlarini va ideallarini ifodalash; ikkinchidan, tasvir obyektiga xalq manfaatlari, orzu-umidlari va ideallari nuqtai nazaridan yondashib, ilg'or dunyoqarash va yuksak g'oyaviylik asosida aks ettirish, til va uslubdan, rang-barang shakl va janrlardan foydalanish kabi muhim tamoyillar bilan belgilanadi»¹⁴ Haqiqatdan ham, Yassaviyning xalqchillik uslubi hikmatlarni bir necha asrlardan buyon yashab kelishida hamda izdoshlarining bu xalqchillikni davom ettirishida ko'rinadi. Hikmatlarining har bir so'zi va iboralari jozibador, o'ziga xos ohangga ega. Yassaviy hikmatlarida axloqiy g'oyalar xalqchillik ohangida singdirilgan. Uning hikmatlari tinglovchini ilohiy Birlik kuchiga ishontiradi, ko'ngilni poklashga undaydi. Har bir hikmatini o'ziga xos yangilanish bilan boshlaydi.

Bismilloh deb bayon aylay hikmat oytib,
Toliblarg'a durru gavhar sochtim mano.
Riyozatni qottiq ortib qonlar yutub,
Man daftari soniy so'zin ochtim mano.¹⁵

Yassaviy hikmat aytishni boshlar ekan, ilohiy axloq bilan toliblarga nasihat qiladi. Komil aql bilan dastlabki so'zlarini boshlaganini ta'kidlaydi. Yassaviy tajriba bilan erishgan bilimlarini toliblarga ulashadi. She'riy pandnomalarini xalfalariga yetkazishi orqali Yassaviyning ularni go'zal axloq bilan tarbiyalaydi. Ularni islomiy pand-nasihat ruhida komillashtiradi.

Qul Xoja Ahmad qiyomatdin aydi muni,
Hikmat qilib xaloyiqqa yoydi muni¹⁶,-

Ulug' shayx islom dinining yetuk ulamosi sifatida turkiy qavmlarni birinchilardan musulmonlikka da'vat qilishga chorladi. Yuqoridagi hikmatida qiyomatda bo'ladigan savol-javobdan ogohlantirib, yassaviya tariqatining yo'l-yoriqlarini bayon etishini anglaymiz. Xaloyiqqa o'z hikmatlari orqali yassaviya tariqatini targ'ib etadi.

Sakkizimda sakkiz yondin yo'l ochildi,
"Hikmat ayt", deb boshlaringa nur sochildi...¹⁷

"Devoni hikmat" dagi ushbu hikmatdagi xitobdan Yassaviyga hikmat aytish ilohiy farmon, ilhom tufayli paydo bo'lganligi tushuniladi. Hikmat aytish uchun barcha yo'llar ochiqligi, hali yosh bo'lishiga qaramasdan ilohiy nur boshidan sochilishi natijasida hikmat aytishga tayyorligi, hech qanday to'siq yo'qligini bayon qiladi.

Shuningdek, Yassaviyga ilohlar tomonidan hikmat aytish xitobi o'ttiz to'rtida ham buyurilganligi, hikmatlarning mazmun-mohiyati, ta'siri katta ekanligini quyidagi hikmatdan anglasa bo'ladi:

O'ttiz to'rtida olim bo'lub, dono bo'ldum,
"Hikmat ayt", deb Subhon aydi, go'yo bo'ldum...¹⁸

Xoja Ahmad Yassaviy uchun hikmat aytish islomiy borlik, ilohiy ilm ekanligini ta'kidlaydi. Har bir hikmatlari musulmonlik odobidan, ilmidan daolat ekanligini, unda ilohiy ilm yashiringanligini quyidagicha ta'riflaydi:

Hikmat birlan ul adamdin bor ayladi,

¹⁴ ТУХТАБОБОВ. Адабиет коидалари. УЗБЕКИСТОН. ТОШКЕНТ. 4-bob.82-bet. [www.ziyouz.com.kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi).

¹⁵ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991. 41-bet.

¹⁶ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1992. 14-bet.

¹⁷ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1992. 25-bet.

¹⁸ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1992. 61-bet.

O'n sakkiz ming qomug' olam hayron erur.¹⁹

Musulmon olamida Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari yassaviya tariqatining asoschisi sifatida, murshid va so'fiy shoir sifatida turkiy millatlarning ma'naviy va madaniy hayotida o'chmas iz qoldirdi. Takrorlanmas shaxslardan biriga aylandi. Xalq orasida "Piri Turkiston", "Xojai Turkiston" nomlari bilan xalq orasida shuhrat qozondi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan Xoja Ahmad Yassaviy hikmatnavislik maktabining asoschisi ekanligini anglatuvchi quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Asosan chorvadorlik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi turkiy qavmlar uchun turkiy tildagi irfoniy asarga ehtiyoj bor edi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari ana shu ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi.
2. Xoja Ahmad Yassaviy irfoniy hikmatlarida ilohiy da'vat borligi uchun uning hikmatlari muqaddas asar sifatida qaraldi.
3. Hikmatlar turkiy tilda so'zlashadigan qavmlar uchun asosiy targ'ibot vositasi bo'lib qoldi.
4. Turkiy tilda hikmat aytish an'anasi Yassaviydan boshlanib, uning izdoshlari ijodida davom etdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1992.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1991.
3. To'xtaboboyev . Adabiyot qoidalari. O'zbekiston. Toshkent.: 4-bob.
4. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 2001.
5. Nodirxon Hasan. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Yangi topilgan namunalar. Movorounnahr. Toshkent. 2004.
6. Abdurahmon Sa'diy. Ahmad Yassaviy. (Yassaviy kim edi?). Toshkent.: 1994.
7. M. F. Ko'prulu. Turk adabiyotinda ilk mutasavviflar. Anqara.
8. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. Toshkent.: Yozuvchi, 1996.
9. N. Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat". Filologiya fanlari doktori.diss. Toshkent.: 2017.

¹⁹ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.: 1992. 89-bet.